

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA SIFAT MENEJMENTI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Djurayeva Zulayho Xujamovna

Qarshi shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi 1-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori, Qarshi Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi.
e-mail: zulyadjorayeva82@gmail.com,
Tel: +998995251800

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifat menejmenti tizimining mazmuni, uning asosiy tamoyillari, boshqaruvning zamonaviy yondashuvlari, SWOT tahlili, strategik boshqaruvning ahamiyati hamda ta'lim muhitini modernizatsiya qilish yo'nalishlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotining missiya va maqsadlarini belgilashning nazariy asoslari hamda ularni amalga oshirishda sifat menejmenti mexanizmlari yoritiladi. Maqola yakunida tizimni takomillashtirish bo'yicha ilmiy- amaliy tavsiyalar beriladi.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the quality management system in preschool educational institutions, its core principles, modern management approaches, SWOT analysis, the importance of strategic planning, and directions for modernization of the educational environment. It also examines the theoretical foundations of defining the mission and goals of preschool institutions and the mechanisms of implementing these within a quality management framework. The article concludes with practical recommendations for improving the system.

Аннотация: В данной статье научно обоснованно анализируется система менеджмента качества в дошкольных образовательных организациях, ее основные принципы, современные подходы к управлению, SWOT-анализ, значимость стратегического управления и направления модернизации образовательной среды. Также рассматриваются теоретические основы определения миссии и целей дошкольной образовательной организации и механизмы их реализации в системе менеджмента качества. В заключение представлены научно-практические рекомендации по совершенствованию системы.

Kalit so'zlar: Sifat menejmenti, maktabgacha ta'lim, strategik boshqaruv, SWOT tahlil, innovatsion ta'lim, boshqaruv tamoyillari, pedagogik menejment.

Kirish: Maktabgacha ta'lim tizimi ta'limning uzluksiz bosqichlari ichida eng muhim poydevor hisoblanadi. Bola shaxsining dastlabki sifatleri, qiziqishlari, bilish faolligi va ijtimoiy ko'nikmalari aynan ushbu bosqichda shakllanishi sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifat menejmenti samaradorligini ta'minlash zamonaviy ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Menejment nazariyasi bo'yicha A. Fayol, F. Teylor, G. Emerson, M. Veber kabi klassik olimlar tomonidan asos solingan boshqaruv tamoyillari bugungi ta'lim tizimi uchun ham dolzarb bo'lib, ular metodologik asos sifatida maktabgacha ta'limni boshqarish strategiyasining zamonaviy modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Sifat menejmenti tizimi ta'lim jarayonining samaradorligi, uzluksizligi, innovatsionligi va shaffofligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, uning tarkibida

rejalashtirish, nazorat, monitoring, diagnostika va tahlil jarayonlari muhim o'rin tutadi. Shuningdek, zamonaviy boshqaruv konsepsiyalarida bola markazchiligi, ta'lim xizmatlari sifati, bolaning individual rivojlanish qo'llab-quvvatlash kabi yondashuvlarning ustuvorligi kuchayib bormoqda.

Mazkur tadqiqot quyidagi metodologik asoslar va ilmiy yondashuvlarga tayandi:

1. **Nazariy-tahliliy metod:** Kattakishiyev, Maxkamova, Yo'ldoshev, Muxitdinov, Qosimova, Valijonov, Zayavitdinova kabi mahalliy olimlar tadqiqotlari hamda boshqaruvning klassik nazariyalari (Fayol, Teylor, Emerson, Veber) tahlil qilindi. Ularning boshqaruv tamoyillari maktabgacha ta'lim tizimi sharoitiga moslashtirildi.

2. **Strukturaviy-funksional yondashuv** Maktabgacha ta'lim tashkilotining boshqaruv tizimi: subyekti va obyektlari, boshqaruv pog'onalari, vakolatlar taqsimoti, boshqaruvning strategik, funksional va operatsion darajalari tahlil qilindi. [3].

3. **SWOT tahlili metodidan foydalanish:** Mazkur yondashuv maktabgacha ta'lim tashkilotining kuchli, zaif tomonlari, imkoniyatlari va xavflarini aniqlash imkonini berdi. [1].[2].

4. **Innovatsion-pedagogik metod:** Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari Shlyayxerning XXI asr ta'limi bo'yicha nazariy qarashlari bilan bog'liq holda tahlil qilindi.

5. **Komparativ tahlil:** Xorijiy ta'lim menejmenti modellari bilan mahalliy tizim taqqoslanib, moslashtirish imkoniyatlari o'rganildi.

Metodologik yondashuvlarning bunday kombinatsiyasi tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlab, maktabgacha ta'limdagi boshqaruv jarayonlarining ko'p qirrali xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga imkon berdi.

Maktabgacha ta'limda sifat menejmentining mazmuni

Sifat menejmenti - bu ta'lim tashkilotining maqsadiga erishish uchun belgilangan sifat ko'rsatkichlari asosida rejalashtirilgan jarayonlarni boshqarish, tahlil qilish va takomillashtirib borish tizimidir. Bu jarayon quyidagilarni o'z ichiga oladi: [2].

- ✓ ta'lim sifatini rejalashtirish;
- ✓ monitoring va diagnostika;
- ✓ tashkiliy-boshqaruv jarayonlari muvofiqligi;
- ✓ pedagogik faoliyat samaradorligini baholash;
- ✓ takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy tamoyillari

Maqolada keltirilgan tamoyillar Teylor, Emerson va zamonaviy menejment nazariyalariga asoslanadi. Jumladan:

- bola manfaatlari ustuvorligi;
- uzluksizlik va tizimlilik;
- innovatsion yondashuv;
- hamkorlik tamoyili;
- moslashuvchanlik; aniq qo'yilgan maqsad va g'oyalar;
- oqil, sog'lom fikr;
- jozibali, e'tiborli mahsulot;

- intizom;
- xodimga nisbatan adolatli bo'lish;
- sifatni doimiy oshirish.
- Ishning iqtisodiy usullarini joriy qilish;
- Professional tanlov va kadrlarni o'qitish;
- Kadrlarni joy-joyiga ratsional qo'yish;
- Ma'muriyat bilan ishchining hamkorligi.

O'zbekistondagi maktabgacha ta'lim tashkilotining **missiyasi** — har bir bolaga qulay va xavfsiz ta'lim muhitini yaratish orqali ularning barcha sohalaridagi rivojlanishini ta'minlash, bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishga yordam berishdir. Mazkur missiya mamlakatdagi har bir bola o'z qobiliyatini to'laqonli rivojlantirishi uchun zarur sharoit yaratishga qaratilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining missiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- bolalarning har tomonlama rivojlanishi;
- ijtimoiylashuv jarayonini qo'llab-quvvatlash;
- xavfsiz va qulay ta'lim muhitini yaratish;
- ta'limning uzluksizligini ta'minlash.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsadlari - qisqa, o'rta va uzoq muddatli vazifalar bo'lib, ular strategik boshqaruv orqali amalga oshiriladi. [4]. [5].

SWOT tahlilining maktabgacha ta'limda qo'llanishi

Tahlilning qisqa shakli:

Kuchli tomonlar:

- ✓ malakali pedagoglar mavjudligi
- ✓ davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash
- ✓ milliy dasturlar mavjudligi

Zaif tomonlar:

- ✓ moddiy-texnik bazaning yetishmovchiligi
- ✓ innovatsion texnologiyalar kamligi
- ✓ kadrlar malakasining notekisligi

Imkoniyatlar:

- ✓ raqamli texnologiyalarning kengayishi
- ✓ xalqaro tajribalarni tatbiq etish
- ✓ xususiy sektorni jalb qilish

Tahdidlar:

- ✓ iqtisodiy o'zgaruvchanlik
- ✓ raqobatning kuchayishi

SWOT tahlili strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim muhitini zamonaviylashtirish

Zamonaviylashtirish jarayoni bir nechta yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Raqamlashtirish (elektron portfoliolar, e- monitoring);
2. Pedagoglar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish;
3. Innovatsion pedagogik texnologiyalar (STEAM, montessori, interfaol metodlar);
4. Inklyuziv ta'limni joriy etish;
5. Ota-onalar bilan hamkorlikni raqamli platformalar orqali kuchaytirish.

Xulosa. Maktabgacha ta'limda sifat menejmenti tizimi ta'lim jarayonining samaradorligi, innovatsionligi va raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Sifatni boshqarishning ilmiy asoslangan tamoyillari, SWOT tahlili, strategik rejalashtirish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratiladi. Missiya va maqsadlarning aniq belgilanishi esa boshqaruvning samarali tashkil etilishiga zamin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Djurayev R.X. Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. Toshkent. "VORIS-NASHRIYOT", 2006. 263 bet
2. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. T.: "Turon-Iqbol": 2006. 590 bet
3. Muxitdinov X.A., Sobirov A.A. Boshqarish nazariyasi / Darslik. – T., Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijdiy uyi. 2012, 240 bet.
4. Pardayev O.M. Menejment. O'quv qo'llanma. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2019. – 261 b.
5. Yo'ldoshev N.K. Menejment asoslari va biznes reja: darslik / N.K.Yo'ldoshev, S.Sh.Yusupov, G.E.Zaxidov. – Toshkent: – O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017. – 252 bet.